

YOSHLAR ORASIDA GENDER MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY ASOSLARI

Noila Suyunova G'ayrat qizi

Perfect universiteti o'qituvchisi

E-mail: suyunova.n@perfectuniversity.uz

Tel: +998 91 630 89 79

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18678032>

Annotatsiya

Mazkur maqolada yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil qilinadi. Gender madaniyati jamiyatning ijtimoiy ong darajasi, madaniy qadriyatlari va shaxs kamoloti bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida talqin etiladi. Maqolada gender madaniyatining mazmun-mohiyati, uning yoshlar ongida shakllanish omillari hamda ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni falsafiy yondashuv asosida yoritilgan. Shuningdek, an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy gender qarashlari o'rtasidagi muvozanat masalalari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: gender madaniyati, yoshlar, ijtimoiy ong, falsafa, gender tengligi, madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot.

Аннотация

В статье анализируются социально-философские основы формирования гендерной культуры среди молодежи. Гендерная культура рассматривается как важный элемент общественного сознания, тесно связанный с культурными ценностями и развитием личности. Раскрываются сущность гендерной культуры, факторы ее формирования в сознании молодежи и ее роль в социальном развитии общества. Особое внимание уделяется проблеме соотношения традиционных ценностей и современных гендерных представлений.

Ключевые слова: гендерная культура, молодежь, общественное сознание, философия, гендерное равенство, культура, социальное развитие.

Abstract

This article examines the socio-philosophical foundations of forming gender culture among youth. Gender culture is interpreted as an integral component of social consciousness closely related to cultural values and personal development. The paper analyzes the essence of gender culture, the factors influencing its formation among young people, and its role in social development. Special attention is paid to the balance between traditional values and modern gender perspectives.

Keywords: gender culture, youth, social consciousness, philosophy, gender equality, culture, social development.

Bugungi globallashuv va ijtimoiy transformatsiyalar sharoitida gender madaniyatini shakllantirish masalasi dolzarb ijtimoiy-falsafiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida gender madaniyatini rivojlantirish jamiyatning barqaror taraqqiyoti, ijtimoiy adolat va inson huquqlarini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gender madaniyati shaxsning jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy rollari va o'zaro munosabatlarini belgilovchi muhim omil hisoblanadi.

Gender madaniyati tushunchasi falsafada shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar tizimi doirasida tahlil qilinadi. U biologik farqlardan ko'ra ijtimoiy omillar asosida shakllanuvchi gender rollari, me'yorlari va qadriyatlarini o'z ichiga oladi [1]. Ijtimoiy falsafa

nuqtai nazaridan gender madaniyati — bu jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan ijtimoiy tajriba va ma'naviy merosning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Falsafiy yondashuvga ko'ra, gender madaniyati ijtimoiy ong shakllari — axloq, huquq, siyosat va madaniyat bilan uzviy bog'liqdir. Aynan shu jihat gender masalasini faqat biologik yoki sotsiologik muammo sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayonda gender madaniyati shaxsning o'zini anglash darajasi, ijtimoiy identifikatsiyasi va jamiyatdagi mavqeini belgilovchi muhim omilga aylanadi.

Yoshlar ijtimoiy o'zgarishlarga eng tez moslashuvchi ijtimoiy guruh bo'lib, gender madaniyatining shakllanishida faol sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy antropologiya nuqtai nazaridan yoshlar shaxsiy va ijtimoiy identitetni shakllantirish bosqichida bo'lib, aynan shu davrda genderni oid qarashlar, stereotiplar va qadriyatlar mustahkamlanadi [2]. Yoshlar ongida gender madaniyatining shakllanishi dialektik jarayon bo'lib, unda an'anaviy va zamonaviy qarashlar o'zaro ta'sirga kirishadi. Ushbu jarayonda ziddiyatlar yuzaga kelishi tabiiy hol bo'lib, ularni inkor etish emas, balki falsafiy mushohada orqali anglash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan ziddiyatlar orqali ijtimoiy ong rivojlanadi va yangilanadi. Gender madaniyatini shakllantirish jarayonida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy gender g'oyalari o'rtasidagi munosabat alohida e'tiborni talab etadi. An'anaviy jamiyatlarda gender rollari qat'iy belgilangan bo'lsa, zamonaviy jamiyatda ushbu rollar qayta ko'rib chiqilmoqda [3]. Ijtimoiy-falsafiy tahlil shuni ko'rsatadiki, bu ikki yondashuv o'rtasida qarama-qarshilikdan ko'ra muvozanat muhimroqdir. Dialektik yondashuv asosida gender madaniyati an'anaviy qadriyatlarni to'liq inkor etmasdan, ularni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish orqali rivojlanadi. Bunda yoshlar ongida tolerantlik, o'zaro hurmat va ijtimoiy mas'uliyat kabi falsafiy-axloqiy tamoyillarni shakllantirish muhim vazifa hisoblanadi.

Gender madaniyatining rivojlanishi jamiyatning umumiy taraqqiyot darajasi bilan bevosita bog'liq. Ijtimoiy falsafada gender tenglik g'oyalari adolat, erkinlik va inson qadriyatini e'zozlash tamoyillari bilan uyg'un holda talqin etiladi [4]. R.Connellning gender tartibi (gender order) haqidagi konsepsiyasiga ko'ra, jamiyatda mavjud ijtimoiy tuzilmalar gender munosabatlarini shakllantiradi va mustahkamlaydi [5]. Bu jarayonda yoshlar ushbu tuzilmalarni nafaqat qabul qiluvchi, balki ularni o'zgartiruvchi faol kuch sifatida namoyon bo'ladi. J.Butler tomonidan ilgari surilgan genderning ijtimoiy konstruktiv tabiati haqidagi g'oya gender madaniyatini biologik determinizmdan xoli holda tushuntirish imkonini beradi [6]. Ushbu yondashuvga ko'ra, gender identiteti ijtimoiy amaliyotlar, til va madaniy diskurslar orqali shakllanadi. Yoshlar orasida gender madaniyatini rivojlantirish aynan ushbu diskurslarni tanqidiy tahlil qilish va ongli ravishda qayta qurish bilan chambarchas bog'liq. A.Giddensning refleksiv modernlik nazariyasi esa zamonaviy jamiyatda shaxsiy identitet doimiy qayta ko'rib chiqilishini ta'kidlaydi [2]. Bu holat yoshlar ongida genderni oid qarashlarning dinamik va ochiq tizim sifatida shakllanishiga olib keladi. Natijada gender madaniyati ijtimoiy moslashuvchanlik va innovatsion tafakkur omiliga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, gender madaniyati nafaqat individual ong darajasida, balki jamiyatning institutsional tuzilmalari — ta'lim, oila va madaniyat sohalarida ham mustahkamlanishi zarur. Xususan, ta'lim tizimida falsafiy-tanqidiy tafakkurni rivojlantirish yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirishning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi. Falsafiy yondashuv bu jarayonni tizimli va izchil ravishda tushuntirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirish murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy jarayondir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun gender madaniyatining nazariy asoslarini chuqur anglash, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhimdir. Gender madaniyati rivojlangan jamiyatda yoshlarning ijtimoiy ong darajasi yuqori bo'lib, bu jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

References:

1. Connell R. Gender and Power: Society, the Person and Sexual Politics. — Stanford: Stanford University Press, 2019.
2. Giddens A. Sociology. — Cambridge: Polity Press, 2020.
3. Butler J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. — New York: Routledge, 2018.
4. Oakley A. Sex, Gender and Society. — London: Routledge, 2016.
5. O'zbekiston Respublikasi "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2019.
6. Abdullaeva M. Gender sotsiologiyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.